

IBN SINO ILMIY-FALSAFIY QARASHLARIDA MANTIQLARNING O'RNI**Ergashev Ozodbek Baxodurovich***Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**assistent o'qituvchisi**+998770736309**email: obek2155@gmail.com***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Abu Ali Ibn Sinoning mantiq ilmi sohasidagi falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Muallif Ibn Sinoning “Kitob ash-shifo”, “Ishorat va tanbihot”, “An-najot”, “Donishnoma” kabi asarlari asosida mantiqqa doir tushunchalar, hukmlar, xulosalar, isbotlash, dialektika va ritorikaga oid nazariy yondashuvlarini yoritadi. Shuningdek, mutafakkirning Aristotel va Forobiyga tayanib, mantiq ilmini qanday takomillashtirgani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: *Ibn Sino, mantiq, tushuncha, hukm, xulosa, sillogizm, isbot, falsafa, Aristotel, Forobiy.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются философские взгляды Абу Али ибн Сины в области логики. На основе его трудов, таких как «Китаб аш-шифа», «Ишарат ва танбихат», «Ан-наджат» и «Донишнома», анализируются основные понятия логики, суждения, умозаключения, доказательства, диалектика и риторика. Также освещается, как мыслитель, опираясь на учения Аристотеля и аль-Фараби, усовершенствовал логическую науку.

Ключевые слова: *Ибн Сина, логика, понятие, суждение, умозаключение, силлогизм, доказательство, философия, Аристотель, аль-Фараби.*

ABSTRACT

This article explores the philosophical perspectives of Abu Ali Ibn Sina on logic. Drawing on his major works such as Kitab al-Shifa, Isharat wa Tanbihat, An-Najat, and Danishnama, the paper analyzes key concepts in logic, including definitions, judgments, inferences, syllogisms, proofs, dialectics, and rhetoric. It also highlights how Ibn Sina, influenced by Aristotle and Al-Farabi, developed and refined the science of logic.

Keywords: *Ibn Sina, logic, concept, judgment, inference, syllogism, proof, philosophy, Aristotle, Al-Farabi.*

KIRISH

Ibn Sino islom falsafiy tafakkurining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida nafaqat metafizika va tabiiy fanlar, balki mantiq ilmining ham yetuk bilimdonlaridan hisoblanadi. U o'zining "Kitob ash-shifo", "Ishorat va tanbihot", "An-najot", "Donishnoma" kabi asarlarida mantiqni bilish nazariyasining asosi sifatida qaraydi. Ibn Sino mantiqni inson tafakkurining to'g'riligini ta'minlovchi vosita, ilmiy bilishning tartibli va asosli shakli deb baholaydi. Mutafakkirning mantiqiy qarashlari Aristotel va Forobiyning ta'limotlariga tayanadi, ammo ular asosida mustaqil va chuqur tizim yaratgan.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari uch katta bo'limdan tashkil topgan – metafizika, fizika, logika-mantiqda o'z aksini topgan. Abu Ali ibn Sino 400 dan ortiq asarlarining 150 dan ortig'i falsafa va mantiq masalalariga bag'ishlangan. Asosiy asari "Kitob ash-shifo"da mantiqqa oid fikrlar 9 qismdan iborat bo'lib, ularning nomlanishi va tartibi Forobiyniki kabidir. Mutafakkirning bu asari mantiq sohasidagi barcha ilmlar asosida vujudga kelgan bo'lib, unda mantiqqa oid masalalar to'liq qamrab olingan. Abu Ali ibn Sinoning mantiqqa oid asosiy asarlari "Ishorat va tanbihot", "An-najot", "Donishnoma", "Hayy ibn Yaqzon", "Salomon va Ibsol" kabi asarlari hisoblanadi.

Ibn Sino islomiy falsafa madaniyatini boyitib, ham arab, ham fors tillarida asarlar yozgan. Uning "Donishnoma"si fors tilida yozilgan birinchi mashhur falsafiy asardir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko'pgina tadqiqotchilarga ko'ra Ibn Sinoning falsafiy qarashlari Platon va Aristotel falsafiy qarashlarining birlashishi natijasiga o'xshaydi¹.

Ibn Sinoning eng katta falsafiy asari "Kitob ash-shifo" bo'lib, islomiy va yunoniy ilmlardan tortib, mantiq va riyoziyotni ham o'z ichiga olgan. Uning boshqa yirik asari "Kitob al-isho-rat va tanbihot" o'quvchilar orasida "Kitob ash-shifo" dan ko'ra, katta e'tiborga sazovor bo'lgan edi. Ushbu kitob uning umrining oxirlarida yozilganligi tufayli, mustaqil fikrlar bayonidir.

U bir necha irfoniy risolalar yozib, ularni "Sharq falsafasi" yoki "ishroq" deb atagan. Ibn Sino Forobiy kabi Arastu-Ptolemey dunyoqarashlariga asoslangan yangi aflotuncha qarashlar tizimini vujudga keltirgan. U dunyoning ilohiy sudur bosqichlaridan kelib chiqqanli-gini isbotlashga urinadi. Ibn Sino o'zining «Kitob ash-shifo» asarini mantiq ilmining qisqacha bayonidan boshlab, unga Arastu, yangi aflotuncha va ravoqiylar qarashlarini qo'shgan.

¹ Лей Г. Очерк истории средневекового материализма, м.. 1962» . 217.

Ibn Sinoning harakat, sokinlik, zamon, makon, bo'shliq, cheksiz va cheklanganlik haqidagi fikrlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Ibn Sino "ilohiy ilm"ni "birinchi falsafa" yoki "hikmati mutlaqa", deb ataydi. Ibn Sinoning xudovand va uning haqidagi, ilm to'g'risidagi fikrlari diqqatga sazovordir. Uning fikricha, vujud haqidagi tushunchani faqat aqlgina bila oladi².

U asosan Aristotel va Forobiyning mantiqiy ta'limotlarini davom ettirgan bo'lsa-da, ko'p masalalarda mustaqil yo'l tutadi. Ibn Sino mantiq fanini ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarni keltirib chiqarish, ularni bir-biridan farq qilish, chin va xato bilimlar, ularning turlarini o'rganuvchi fan yoki nazariy san'atdir, deb ta'riflaydi. Mantiq ilmi ob'ektiv olamni bilish uchun xizmat qiladi, bilish esa real predmetlarni, avvalo, sezgilar orqali aks ettirish, so'ng aqliy, mavhum bilishga asoslanadi. Ibn Sino falsafa, bilish nazariyasi va mantiq muammolarini aralashtirib yubormaydi, ularni alohida-alohida bayon qiladi. Bu jihatdan Ibn Sinoning mantiq fani haqidagi ta'limoti Arastu yaratgan mantiq faniga nisbatan juda ko'p yangi ma'lumotlarni beradi. Mantiqiy masalalarni o'rganishda turli belgi (simvol)lardan foydalanish ham mutafakkirning yutug'i hisoblanadi. Ibn Sinoning mantiq ilmida tafakkur shakllari bo'lgan tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, ularning tuzilishi, turlari, shuningdek, isbotlash masalalari "keng va har tomonlama tahlil etiladi. U tushunchalarni yakka va umumiyga bo'ladi. Mutafakkirning ta'kidlashicha, mantiq fani umumiy tushunchalar bilan shug'ullanadi. U ham, Aristotel kabi, mavjud borliqning eng umumiy holatlarini ifodalovchi o'nta umumiy kategoriyalarni mantiq fanining o'rganish doirasiga kiritadi. Tushunchaning asosiy vazifasi hukm va xulosa chiqarishni tashkil etish, ularga asos bo'lishdir, deb ta'kidlaydi. U tushunchalarni ta'riflash va bo'lish kabi mantiqiy usullarga ham batafsil to'xtab o'tadi. Hukm nazariyasi Ibn Sinoning mantiq ilmida eng katta o'rinlardan birini egallaydi. U hukmlarning tuzilishi, sub'ekt-predikat munosabatlarini har tomonlama tahlil qiladi. Ibn Sino odatiy va murakkab hukmlarni, ularning tuzilishi va turlarini batafsil bayon qiladi. Ibn Sinoning xulosa chiqarish nazariyasi ham tushuncha va hukm kabi chuqur hamda izchil ishlab chiqilgan. U deduktiv xulosa chiqarishga oid barcha masalalarni: sillogizmning tuzilishi, figuralari, moduslari, murakkab sillogizmlar va ularning turlari, sillogizmlarni belgilar vositasida ifodalashni batafsil tahlil qiladi. U induktiv xulosa chiqarish ustida ham fikr yuritadi. Umuman olganda, Ibn Sinoning mantiqiy ta'limotini uning mukammalligi, mavzusining kengligi, hajmi, talqinining

² Po'latova D., Qodirov M., Ahmedova M., Abduhalimov A. Falsafa tarixi (Sharq falsafasi). T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2013. – B.118

batafsilligiga ko‘ra, o‘rta asrlardagi mantiq ilmi rivojining eng yuqori darajasi, deb baholash mumkin³.

Ibn Sino mantiqni falsafaning kaliti deb biladi, mantiq bilan izlanish (bilim) inson baxtining kalitidir. Mantiq noma'lum tushunchalarni chiqarishga yordam berish orqali bu vazifani bajaradi va ma'lum bo‘lganlarning hukmlari, shu bilan bizning darajamizni oshiradi, bilim (tushunchalar aqliy ob'ektlardir tasdiqlash yoki rad etish; hukmlar aqliy ob'ektlardir tasdiqlash yoki inkor qilish). Mantiq buni majmui sifatida bajaradi. Haqiqiyini noto‘g‘ri tushuntirishdan ajratish qoidalari tushunchalarni o‘zida mujassam etgan va vosita bo‘lgan iboralar ma'lumdan ko‘chirish tushunchalarni noma'lumlarga va o‘zida mujassam etgan dalillar, hukmlar va ma'lum narsadan o‘tish uchun vositalardir noma'lumlarga nisbatan hukmlar. Chunki to‘g‘ri ma'lumot ishonchga olib keladi, yolg‘on esa, ilmga to‘g‘ri kelmaydi⁴.

Ibn Sinoning mantiq sohasidagi ta‘limoti uning qator asarlarida “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Kitob ishorat va tanbihot”, “Donishnoma” kabilarda keng bayon etilgan.

O‘z davrining eng yirik falsafiy qomusi bo‘lgan arab tilidagi “Kitob ash-shifo”ning boshlang‘ich 9 kitobi to‘laligicha mantiq ilmi masalalariga bag‘ishlangan. Ibn Sinoning “Donishnoma” asarida mantiq ilmining asosiy tuzilishi, qismlari, tafakkurning shakllari, usullari, qoidalari, mantiqiy xatolar-ning ifodalanishi kabilar tasvirlab berilgan.

Mantiq ilmi Ibn Sino talqinida 9 qismdan tashkil topadi:

- 1) Al-madhal – mantiqqa kirish, uning asosiy vazifalari, bilishda tutgan o‘rni, qismlari kabi masalalarni o‘z ichiga oladi;
- 2) Al-ma‘qulot – bu tafakkurning boshlang‘ich asosiy tushunchalari, ularning nutq orqali ifodalanishi kabi masalalar.
- 3) Al-ibora – hukm, uning turlari, ifodalanishi kabilar.
- 4) Al-qiyos – deduktiv, sillogistik xulosa chiqarish, uning shakllari, qoidalari kabi masalalar;
- 5) Al-burhon – isbotlash, uning mohiyati, vazifasi, turlari, qoidalari va boshqa masalalar;
- 6) Al-jadal – dialektik hukmlar nomini olgan murakkab hukmlar, shartli bo‘linuvchi savol-javob hukmlari kabilar;
- 7) As-safsata – noto‘g‘ri hukmlar, boshqalarni aldash, yolg‘onni isbotlashga qaratilgan sofizm, paralogizmlar haqida;

³ M.Sharipov. D. Fayzixo‘jayeva. Mantiq. Toshkent-2004 28-b

⁴ Oliver Leaman. An introduction to medieval Islamic philosophy.-U.: Cambridge university press. 1984,- 436 p

8) Al-xitoba – ritorika, notqlik san’ati qoidalari, uning tarkibiy qismlari kabi masalalar;

9) Ash-she’r – she’riy hukmlar. She’r yozish san’ati, uning vazifalari va boshqalar.

Ibn Sino uchun mantiq:

- to‘g‘ri fikr yuritishning, xatolardan saqlanishning qoida-sini o‘rgatadi;

- ma’lum bilimlardan noma’lum bilimlarga o‘tish yo‘lini ko‘rsatadi;

- mantiqning fikrlashga munosabati, grammatikaning nutqqa, she’r nazariyasining she’riyatga bo‘lgan munosabatiga o‘xshashdir, amaliy tafakkur har doim mantiqqa muhtoj, chunki, mantiq yordamida u mukammallashadi, yetuklikka erishadi.

Mantiq ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi har qanday inson uchun eng zaruriy ilmlardan hisoblanadi va uni o‘rganish haqiqatni to‘g‘ri bilish va aniqlashning muhim vositasi, qurolidir.

Ibn Sino mantiq fanining vazifalari, tafakkurda tutgan o‘rni va ahamiyati, tafakkur bilan til, mantiq bilan grammatika munosabatlari, tafakkurning to‘g‘riligini belgilovchi barcha qoidalar va ularning tuzilishi, xatolarning turlari, fikrda insonni ataylab adashtirish va aldashning shakllari haqida keng va izchil ma’lumotlar beradi⁵.

“Ibn Sinoda nazariy fanlar mantiqdan oldin bo‘lsa, u Aristotelning “Organon”idan tashqari ravoqiylarning mantiqiy ta’limotlaridan ham keng foydalangan: “Organon” haqidagi haddan tashqari tafakkurni yengishga urinib, Aristotel mantiqiga muhim tuzatishlar kiritgan va uning tamoyillarini tajriba va kuzatish asosida tabiiy fanlar vazifalariga moslashtirishgan. Xuddi shu ta’limotda, mohiyatiga ko‘ra, Ibn Sinoning falsafa, ilohiyot va din o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasiga yechimi ham o‘z ichiga oladi: falsafa yagona ishonchli, apodiktik hukmlarga asoslanadi”⁶.

XULOSA

Ibn Sinoning mantiq ilmi sohasidagi qarashlari o‘rta asr islom falsafasi taraqqiyotida beqiyos o‘rin egallaydi. U mantiqni tafakkurning to‘g‘riligini belgilovchi vosita, bilimlar orasidagi bog‘liqlikni aniqlovchi nazariy san’at deb ta’riflaydi. Mutafakkir mantiq ilmini tushuncha, hukm va xulosa kabi asosiy tarkibiy qismlarga ajratgan holda chuqur tahlil etgan va uni Aristotel mantiqidan ham kengroq, mukammalroq tarzda talqin qilgan. Ibn Sino uchun mantiq ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi har bir inson uchun zarur bo‘lgan vositadir va u ilmiy tafakkur

⁵ Po‘latova D., Qodirov M., Ahmedova M., Abduhalimov A. Falsafa tarixi (Sharq falsafasi). T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2013. – B.122

⁶ P.P. Шангараев. Мусульманская религиозная философия.-Болгар.:2020.-98 с

madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. Uning bu boradagi merosi bugungi kunda ham falsafa, mantiqshunoslik va bilish nazariyasi sohalarida o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sayyed Hossain Nasr, Oliver Leaman. History of Islamic philosophy.-Great Britain.: TJI Digital, Padston; Cornwall,2001.-2187 pages
2. M. Sharipov, D. Fayzixo‘jayeva. Mantiq –T.:2004. -216 bet
3. Po‘latova D., Qodirov M., Ahmedova M., Abduhalimov A. Falsafa tarixi (Sharq falsafasi). T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti,2013
4. Мусульманская религиозная философия. Р.Р. Шангараев. – Казань: ИД «МеДДоК», 2020. – 252 с.